

# Migratsiya kartasi

## Migratsiya kartasi nima

Bu Rossiyaga xorijdan kelgan odam haqidagi axborot ko'rsatilgan hujjat

## Migratsiya kartasida nimalar ko'rsatilgan

- Ism, familiya, otasining ismi
- Tug'ilgan sana
- Jinsi
- Fuqarolik
- Pasport raqammi
- Viza raqami (RFGa kirish uchun zarur bo'lsa)
- Tashrif maqsadi
- Qabul qiluvchi tomon
- Mamlakatda qolish muddati

## Migratsiya kartasi nimaga kerak

Hujjat vaqtinchalik yashash ruxsatnomasi yoki RFda yashash guvohomasi, shuningdek, ishlashga ruxsat va mehnat patenti olish imkonini beradi

## Migratsiya kartasi kimlarga kerak

Migratsiya kartasi Rossiya yoki Belarusda doimiy yoki vaqtincha yashashga ruxsat berilmagan barcha chet el fuqarolariga kerak

## Migratsiya kartasi qayerdan olinadi

Hujjat chegarani kesib o'tayotganda pasport nazoratida RF chegara xizmati xodimi tomonidan beriladi

## Migratsiya kartasi qanday shaklda bo'ladi

"А" (Въезд/Arrival)		"Б" (Выезд/Departure)	
Российская Федерация Republic of Belarus		Российская Федерация Republic of Belarus	
Миграционная карта Migration Card	Серия/ Serial №	Миграционная карта Migration Card	Серия/ Serial №
Фамилия/Surname (Family name)		Фамилия/Surname (Family name)	
Имя/Given name(s)		Имя/Given name(s)	
Отчество/Patronymic		Отчество/Patronymic	
Дата рождения/Date of birth		Дата рождения/Date of birth	
Дни/Day	Месяц/Month	Год/Year	Месяц/Month
Пол/Sex Муж/Male <input type="checkbox"/> Жен/Female <input type="checkbox"/>		Пол/Sex Муж/Male <input type="checkbox"/> Жен/Female <input type="checkbox"/>	
Гражданство/Nationality		Гражданство/Nationality	
Документ, удостоверяющий личность/Passport or other ID		Документ, удостоверяющий личность/Passport or other ID	
Номер визы/Visa number:		Номер визы/Visa number:	
Цель визита (оказано подчеркнуто)/ Purpose of travel (to be underlined): Служебный/Official, Туризм/Tourism, Коммерческий/Business, Учеба/ Education, Работа/Employment, Частный/Private, Транзит/Transit		Цель визита (оказано подчеркнуто)/ Purpose of travel (to be underlined): Служебный/Official, Туризм/Tourism, Коммерческий/Business, Учеба/ Education, Работа/Employment, Частный/Private, Транзит/Transit	
Срок пребывания/Duration of stay: С: From: До: To:		Срок пребывания/Duration of stay: С: From: 25.07.2007 До: To: 24.10.2007	
Подпись/Signature:		Подпись/Signature:	
Служебные отметки/For official use only		Служебные отметки/For official use only	
Въезд в Российскую Федерацию /Республику Беларусь/Date of arrival in the Russian Federation/Republic of Belarus	Выезд из Российской Федерации /Республики Беларусь/Date of departure from the Russian Federation/Republic of Belarus	Въезд в Российскую Федерацию /Республику Беларусь/Date of arrival in the Russian Federation/Republic of Belarus	Выезд из Российской Федерации /Республики Беларусь/Date of departure from the Russian Federation/Republic of Belarus

## Muhim

Migratsiya kartasini mamlakatga kirish paytida rasmiylashtirish lozim, shu bois hujjatni xatolarsiz to'ldirish zarur. Migratsiya kartasidagi xatolikni faqat mamlakatga takroran kirish paytida tuzatish mumkin

## Migratsiya kartasi qanday to'ldiriladi

Migratsiya kartasi ikki qismdan iborat: "A" (kirish) va "B" (chiqish)

Barcha bo'limlardagi qat'iy belgilangan bo'limlar va jadvallarni bosma kirill yoki lotin harflari bilan to'ldiring.

- familiya, ism, otasining ismi (agar bo'lsa)
- tug'ilgan sana (sana, oy, yil) KK OO YYYY formatida
- jinsi – jinsingiz ko'rsatilgan kvadratni bo'yang
- fuqarolik
- pasportingiz yoki Rossiyaga kirayotgandagi boshqa hujjatingiz raqami
- viza raqami (agar bo'lsa)
- tashrif maqsadi (tagiga chizilsin): xizmat, turizm, tijorat, o'qish, ish, shaxsiy, tranzit
- taklif qiluvchi tomon haqidagi ma'lumotlar – kompaniya nomi yoki shaxsning ismi, u joylashgan shahar. Siz boradigan joy va manzilni kiriting
- qolish muddati

## Migratsiya kartasi yo'qolsa, nima qilish kerak

Agar migratsiya kartangiz yo'qolsa yoki shikastlansa, mintaqangizdagi ichki ishlar bo'linmasiga murojaat qiling. Sizga hujjat nusxasi beriladi. Hujjat yo'qolgani haqida 3 ku ichida xabar berish zarur.